

TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA



Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev joylarda bo'lib tumandagi MMTP hududlarida joylashgan fermer xo'jaliklarida 2024 yil hosili uchun yetishtirilayotgan paxta maydonlarida olib borilayotgan agrotexnik dolzarb tadbirlarning bajarilishi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda fermer xo'jalik rahbarlariga g'o'za maydonlarini sug'orishdan so'ng kultivatsiya qilish, paxta qatorlarini ochish(varaqalash), 120 gr sojean bilan ishlov berish kabi topshiriqlar berildi.



Shuningdek tuman rahbari "A.Aligaxrov Langar" MMTP hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Yangiariq Do'stlik sari" fermer xo'jaligida bo'lib, xo'jalikda 2024 yil hosili uchun yetishtirilayotgan paxta maydonlarida olib borilayotgan agrotexnik tadbirlar bilan tanishdi.

Tuman hokimi tomonidan xo'jalik rahbariga paxta maydonlarida olib borilayotgan agrotexnik tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-08-15 22:37:58